Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

SOLIQ QARZDORLIGINING ORTISHI VA UNING IQTISODIY XAVFLARI: MAKRO VA MIKROIQTISODIY TAHLIL

Axunjonov Samandar Zafar o'g'li
Profi University, Iqtisodiyot va aniq fanlar fakulteti,
Iqtisodiyot yo'nalishi 5-kurs talabasi. Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya Mazkur maqolada soliq qarzdorligi ortishining makroiqtisodiy barqarorlikka hamda biznes muhitiga ta'siri tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, soliq qarzining oshishi davlat byudjeti taqchilligiga, shuningdek, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS) asosida faoliyat yurituvchi korxonalarning to'lov qobiliyatini yo'qotishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqotning maqsadi soliq qarzining hududiy va institutsional iqtisodiyotga ta'sirini baholash va soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tahlil natijalari soliq yukini to'g'ri optimallashtirish va soliq ma'muriyatchiligida shaffoflikni ta'minlash inqirozli holatlarning oldini olishga xizmat qilishini ko'rsatdi.
Kalit so'zlar: soliq qarzi, makroiqtisodiyot, byudjet taqchilligi, soliq optimizatsiyasi, bankrotlik, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS), fiskal siyosat.

THE IMPACT OF INCREASING TAX DEBT AND ITS ECONOMIC RISKS: MACRO AND MICROECONOMIC ANALYSIS

Abstract This article examines the impact of the increase in tax debt on macroeconomic stability and the business environment. The relevance of the study is that the increase in tax debt can lead to a state budget deficit, as well as the loss of solvency of enterprises operating on the basis of international financial reporting standards (IFRS). The aim of the study is to evaluate the impact of tax debt on regional and institutional economics and to develop practical recommendations for improving tax administration. The analysis results showed that proper optimization of the tax burden and ensuring transparency in tax administration serve to prevent crisis situations.
Keywords: tax debt, macroeconomics, budget deficit, tax optimization, bankruptcy, International Financial Reporting Standards (IFRS), fiscal policy.

1.Kirish Soliqning kelib chiqishi davlatning paydo bo‘lishi bilan chambarchas bog'liq. Har qanday iqtisodiy tizimda davlatning ijtimoiy munosabatlarini, shuningdek, davlatni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash zarurligi soliqlarning obyektiv ehtiyojini keltirib chiqaradi. Hozirgi davrda ham davlat bajaradigan vazifalarni mablag bilan ta'minlash muammosi soliqning obyektiv zarurligini keltirib chiqaradi. Soliqlarning asosiy vazifasi ijtimoiy tanglikni yumshatish, davlat xarajatlarini moliyalashtirish va iqtisodiyotni tartibga solishdan iborat bo'lsa-da, iqtisodiyotda soliq qarzining (qarzdorligining) ortib borishi ushbu funksiyalarning to'laqonli bajarilishiga jiddiy to'sqinlik qiladi. Davlat byudjeti daromadining qariyb 90%ini soliqlar tashkil etadi. Shu sababli, soliq tushumlarining vaqtida amalga oshirilmasligi davlatning makroiqtisodiy barqarorligiga, korxonalarning mikroiqtisodiy ko'rsatkichlariga bevosita xavf tug'diradi.

2.Adabiyotlar sharhi Soliq siyosati va uning iqtisodiyotdagi o'rni ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, A. Yo'ldoshev o'zining "Soliq va soliqqa tortish" asarida soliq mexanizmlarining asoslarini yoritgan bo'lsa, T.S. Malikov soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalarini tahlil qilgan.

Shuningdek, B. Pariyev soliq siyosatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omili sifatida baholaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq qarzini boshqarish va uning inqirozli oqibatlarini Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS) orqali yoritib berish yo'nalishidagi tadqiqotlar hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

3.Tadqiqot metodologiyasi Mazkur tadqiqotda iqtisodiy hodisalarni baholashning qiyosiy tahlil, kontent tahlili hamda mantiqiy xulosa chiqarish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida davlat soliq tushumlarining makroiqtisodiy oqibatlari baholandi va korxonalarning moliyaviy barqarorligiga ta'siri mikroiqtisodiy yondashuv hamda soliq stavkalarini belgilash tamoyillari asosida o'rganildi.

4.Tadqiqot natijalari va muhokama Tadqiqot natijalari soliq qarzi xavflarini ikki asosiy guruhga ajratish imkonini berdi: makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy xavflar.

Makroiqtisodiy xavflar: Yig'ilgan soliqlar mamlakatning turli sohalariga stroflicha sarflanadi va mamlakatda pul aylanmasi izchil yo'lga qo'yiladi. Soliq qarzining ortishi byudjet tushumlarining kamayishiga, davlatning ijtimoiy xarajatlarni (aholining kam ta'minlangan tabaqalarini himoya qilish, maorif, sog'liqni saqlash) moliyalashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab bo'ladi. Byudjet taqchilligini qoplash maqsadida davlat tashqi qarzga murojaat qilishi yoki pul massasini oshirishi mumkin, bu esa bevosita inflyatsiyani keltirib chiqaradi.

Mikroiqtisodiy xavflar va soliq optimizatsiyasi: Korxonalar darajasida soliq qarzi penya va jarimalarning o'sishi hisobiga aylanma mablag'larning qisqarishiga olib keladi. Korxonalar faoliyatini soliq yordamida tartibga solishda barcha uchun yagona umumdavlat siyosati hamda samarali ishlovchi korxonalarda soliq me'yorlarining rag'batlantiruvchi rolini ta'minlash tamoyillari amal qiladi. Ammo to'lovga layoqatlilik tamoyili buzilsa — ya'ni soliq miqdori soliq to'lovchining boyligi va daromadlari darajasiga mos kelmasa — qarz yuki ortadi. Shu o'rinda adolatlilik tamoyilini ham ta'kidlash joiz: daromadlari va hukumat dasturlaridan foydalanish darajasi bo‘yicha teng bo'lgan kishilar teng miqdorda soliq to'lashi zarur. Qarzning oshishi Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS) bo'yicha hisobot tayyorlaydigan korxonalar balansida passivlarning keskin oshib ketishiga va bankrotlik xavfiga olib keladi.

5.Xulosa Soliq qarzdorligining ortishi butun moliyaviy tizimda salbiy zanjirli reaksiyani yuzaga keltiradi. O'zbekistonda olib borilayotga puxta soliq siyosati bilan betakror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, iqtisodiyotni modernizatsiyalash orqali mamlakatning gullab-yashnashi va aholi turmush farovonligini yanada yuksaltirishda eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Bu jarayonda kutilajak xavflarning oldini olish uchun korxonalarning to'lov qobiliyatini adolatli baholash, xalqaro moliyaviy standartlarni (XMHS) joriy etishni kengaytirish va biznesni ortiqcha soliq bosimidan himoya qiluvchi rasionallashgan soliq ma'murchiligini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.
2. Parkinson S. (1992). *Zakon i doxodi*. M. PKK Interkontakt.
3. Yo'ldoshev A. (1996). *Soliq va soliqqa tortish*. T.: Fan.

4. Malikov T.S. (2002). *Soliqlar va Soliqqa tortishning dolzarb masalalari*. T.: Adliya.
5. Pariyev B. (2016). *Soliq siyosati: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omili*. Soliq solish va buxgalteriya hisobi, 10(24). T.: Sharq.
6. Mankiw, N. G. (2019). *Macroeconomics* (10th ed.). Worth Publishers.
7. IFRS Foundation. (2023). *International Financial Reporting Standards (IFRS)*.